

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.11/25.08.2022.I.24.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**MOYLIYEV ELYOR BAXTIYOROVICH**

**O‘ZBEKISTONNI JSTGA A‘ZO BO‘LISHINING AGRAR SEKTORIGA  
TA‘SIRI**

**08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Qo'lyozma huquqida**  
**UO'K: 339.5:332(575.1)**  
**КБК: 65.428**  
**М-66**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on economic sciences**

**Moyliyev Elyor Baxtiyorovich**

О'zbekistonni JSTga a'zo bo'lishining agrar sektoriga ta'siri .....3

**Мойлиев Элёр Бахтиёрович**

Влияние членства Узбекистана в ВТО на аграрный сектор.....27

**Moyliev Elyor Bahktiyarovich**

The impact of Uzbekistan's membership in the WTO on the agricultural sector...54

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati**

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....59

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.11/25.08.2022.I.24.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**MOYLIYEV ELYOR BAXTIYOROVICH**

**O‘ZBEKISTONNI JSTGA A‘ZO BO‘LISHINING AGRAR SEKTORIGA**  
**TA‘SIRI**

**08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3563 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (uwed.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tashpulatova Laylo Maratovna**  
iqtisodiyot fanlar nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Yusupov Nosirjon Sobirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qurbonov Alisher Boboqulovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi DSc.11/25.08.2022.I.24.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100077, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 54. Tel.: (99871) 267-39-50; faks: (99871) 267-09-00; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz)).

Dissertatsiya bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100077, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 54. Tel.: (99871) 267-39-50; faks: (99871) 267-09-00; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.R. Mavlanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisod fanlari doktori, professor

**G.M. Raimova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, fizika-matematika fanlari doktori,  
professor

**N. Sirajiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi,  
iqtisod fanlari doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Mamlakatlar zamonaviy dunyoda boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishi, ular bilan qulay savdo munosabatlarini o'rnatishi, ko'plab iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilishi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Dunyoning 164 mamlakatini birlashtirgan hamda butun dunyo tashqi savdosining 98-99 %i tegishli bo'lgan Jahon savdo tashkiloti (JST) dunyo mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyasida muhim rol o'ynaydi. Dunyo mamlakatlarining umumiy eksporti 2022-yilda 1948-yilga nisbatan 250 martaga oshgan<sup>1</sup>. Mazkur raqamlar GATT va JSTning mamlakatlar uchun qulay savdo rejimini yaratganligi natijasi hisoblanadi.

JSTga a'zo bo'lish muzokaralar va turli qoidalarga rioya qilishni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Har bir davlatning JSTga a'zo bo'lish tajribasi har xil bo'lishi mumkin, lekin ko'pchilik mamlakatlar boshidan kechiradigan umumiy qadamlar va qiyinchiliklar mavjud. A'zo bo'lish jarayoni, muzokaralar, ichki islohotlar, ichki ishlab chiqaruvchilarni tayyorlash jarayoni, texnik yordam, o'tish davri hamda himoya choralarini qo'llash imkoniyati kabilar JSTga a'zolik uchun asosiy qadamlar hisoblanadi.

Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi uning iqtisodiyoti uchun bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining butun iqtisodiyotga hamda qishloq xo'jaligiga ta'siriga oid keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda JSTga a'zolik jarayoni hamda uning iqtisodiy jarayonlarga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ta'siriga oid masalalar tahlil qilinib, mamlakat uchun eng maqbul yechimlar topish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi 24,3 %ni<sup>2</sup> va bu sohada jami band bo'lgan aholining 26 %i ish bilan ta'minlanganligi<sup>3</sup> qishloq xo'jaligining O'zbekiston iqtisodiyoti uchun judayam muhimligini ko'rsatadi. O'zbekistonda JSTga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirish, mazkur tashkilotga a'zolik jarayonida iqtisodiyotga salbiy oqibatlarini kamaytirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jahon savdo tashkiloti talablari islohotlarimiz mazmuniga to'la mos va biz ushbu nufuzli tashkilotga tezroq a'zo bo'lib kirishdan manfaatdormiz. Hozirgi vaqtda a'zo mamlakatlar bilan muzokaralar olib borish hamda milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti qoidalari bilan uyg'unlashtirish qizg'in bosqichda"<sup>4</sup>.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

<sup>1</sup> Trade negotiations. [Elektron resurs]. URL: [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/whatis\\_e/inbrief\\_e/inbr\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/inbrief_e/inbr_e.htm)

<sup>2</sup> Yalpi ichki mahsulot. [Elektron resurs]. URL: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>

<sup>3</sup> Employment in agriculture. [Elektron resurs]. URL: <https://data.worldbank.org/indicator/sL.AGr.empl.Zs?locations=UZ>

<sup>4</sup> Yangi O'zbekiston investitsiyalar uchun yanada qulay mamlakatga aylanadi. [Elektron resurs]. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/6221>

to‘g‘risida”, “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishining uning agrar sektoriga ta‘siriga bag‘ishlab yozilgan fundamental ilmiy tadqiqot ishlarining soni juda kamligini alohida ta‘kidlash joiz.

J.Clapp<sup>5</sup>, M.Cardwell va F.Smith<sup>6</sup>, K.Anderson va A. Strutt<sup>7</sup>, J.Mwangi<sup>8</sup>, R.Sharma<sup>9</sup>, R.Peters, M.Mashayekhi va I.Taisuke<sup>10</sup>, A.Kamau<sup>11</sup> kabi olimlar Jahon savdo tashkiloti doirasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xalqaro savdosi qoidalarini, subsidiyalarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xalqaro savdosiga ta‘sirini tahlil qilishgan. M.Spoor<sup>12</sup>, P.Bloch<sup>13</sup>, L.Lombardozi<sup>14</sup>, R.Yalcin va P.Mollin<sup>15</sup>, Z.Lerman<sup>16</sup>, M.Müller<sup>17</sup>, R.Pomfret<sup>18</sup> kabi olimlar ilmiy izlanishlarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining hozirgi holati, mavjud muammolar hamda ularni yechish yo‘llari, xalqaro iqtisodiy integratsiyalarga qo‘shilish jarayonida mazkur sohada vujudga keladigan imkoniyatlar hamda muammolar tahlil etilgan. M.Tomz, L.Judith

---

<sup>5</sup> Clapp J. WTO agriculture negotiations: implications for the Global South. // *Third World Quarterly* 27.4., – 2006. – pp. 563-577.

<sup>6</sup> Cardwell M., Smith F. Renegotiation of the WTO agreement on agriculture: accommodating the new big issues. // *International and Comparative Law Quarterly*, 62(04)., – 2013. - pp. 865–898. doi:10.1017/s0020589313000341.

<sup>7</sup> Anderson K., Hoekman B., Strutt A. Agriculture and the WTO: Next Steps. // *Review of International Economics*. 9(2)., – 2001. – pp.192–214. doi:10.1111/1467-9396.00274

<sup>8</sup> Mwangi J. Introduction to the WTO agreement on agriculture. // *Gender in International Agricultural Trade Agreements: A Kenyan Synopsis*. – 2006. – P.25.

<sup>9</sup> Sharma R. Developing country experience with the WTO agreement on agriculture and negotiating and policy issues. // *IATRC Summer Symposium, Vancouver, Canada*. – 2002.

<sup>10</sup> Peters R., Mashayekhi M., Taisuke I. Legal aspects of trade in agriculture: WTO agreement on agriculture and preferential trade agreements. // *Shared harvests: Agriculture, Trade, and Employment*. – 2013. – P.73.

<sup>11</sup> Kamau A. The Role of agricultural subsidies in the World trade organization (WTO) negotiations. // *University Of Nairobi*. – 2011.

<sup>12</sup> Spoor M. Agrarian transition in former Soviet Central Asia: a comparative study of Kazakhstan, Kyrgyzstan and Uzbekistan. // *ISS Working Paper Series/General Series* 298. – 1999. – pp. 1-29.

<sup>13</sup> Bloch P. Agrarian reform in Uzbekistan and other Central Asian countries.// – 2002.

<sup>14</sup> Lombardozi L. "Can distortions in agriculture support structural transformation? The case of Uzbekistan." // *Post-Communist Economies*. 31.1., – 2019. – pp.52-74.

<sup>15</sup> Yalcin R., Peter P. Institutional transformation in Uzbekistan's agricultural and water resources administration: the creation of a new bureaucracy. // No. 22. *ZEF Working Paper Series*. – 2007.

<sup>16</sup> Lerman Z. Agricultural development in Central Asia: A survey of Uzbekistan. // *Eurasian Geography and Economics*. 49.4., – 2008. – pp.481-505.

<sup>17</sup> Müller M. A general equilibrium approach to modeling water and land use reforms in Uzbekistan. *Universitäts-und Landesbibliothek Bonn*. – 2006.

<sup>18</sup> Pomfret R. Agrarian reform in Uzbekistan: why has the Chinese model failed to deliver?. // *Economic Development and Cultural Change*. 48.2., – 2000. – pp.269-284.

va R.Douglas<sup>19</sup> esa O'zbekiston qishloq xo'jaligi tashqi savdosining erkinlashtirilishi uning ichki ishlab chiqaruvchilariga, tashqi savdosiga hamda oziq-ovqat xavfsizligiga qanday ta'sir qilishi bo'yicha tadqiqot qilganlar.

Hozirgi kunga qadar N.Sirojiddinov<sup>20</sup>, M.Vohidova<sup>21</sup>, J.Normatov<sup>22</sup>, A.Yusupov, F.Nazarova va X.Islomxodjayev<sup>23</sup> kabi olimlar JSTning umumiy qoidalari, JSTning O'zbekiston iqtisodiyotiga, tashqi savdosiga ta'siri hamda mazkur tashkilot doirasidagi tashkiliy-huquqiy jihatlarga oid tadqiqot olib borganlar. I.Mavlanov<sup>24</sup> esa O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi jarayonida iqtisodiy diplomatiyaning roli xususida tadqiqot olib borgan. Ammo ularning tadqiqotlarida JSTga a'zolikning qishloq xo'jaligiga ta'siri tahlil qilinmagan. Shu sababli, mavzuni tadqiq etish davomida ilmiy jurnallar, gazeta va internet manbalarida chop etilgan materiallardan unumli foydalanishga harakat qilindi.

O'zbekistonlik olimlardan M.M.Hamdamiyov, L.M.Tashpulatova, R.A.Djurayeva, I.O'.Mingishev<sup>25</sup>, Sh.Shadmankulov va A.Shadmankulov<sup>26</sup>, A.Yusupov<sup>27</sup>, A.Eshev<sup>28</sup>, X.P.Abdulqosimov va N.I.Saidahmedovalar<sup>29</sup>, L.Pulatova, A.Sagitov, S.Aripov va A.Pulatov<sup>30</sup>, G.T.Abdullahodzhaev<sup>31</sup>, L.F.Amirov<sup>32</sup>,

---

<sup>19</sup> Tomz M., Judith L., Douglas R. Do we really know that the WTO increases trade? Comment. // American Economic Review. 97.5., – 2007. – pp.2005-2018.

<sup>20</sup> Сирождидинов Н. Пути интеграции экономики Узбекистана в мировое хозяйство: поиск оптимальных вариантов. //Халқаро муносабатлар, 2020, №3-4, – b. 29-40. // Сираждидинов Н., Закирова С.А., Султанова Г.К., Илхомжонов И., Мингишов Л.У. “Повышение конкурентоспособности экономики Узбекистана в условиях либерализации и углубления экономических реформ”. Монография. – Т.:”Iqtisodiyot”, 2021. – 300 с.

<sup>21</sup>Vokhidova M. The problems and prospects of uzbekistan's accession to the world trade organisation in the condition of international economic integration. // International Finance and Accounting. – 2018.

<sup>22</sup> Normatov J. Why should Uzbekistan join the WTO? // International Relations: Politics, Economics, Law. 2019.1., – 2019. – pp.70-74.

<sup>23</sup> Yusupov A.S. “Tashqi savdoni erkinlashtirish jarayonida milliy eksport raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. – T.: – 2023; Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – T.: – 2001; Islomxodjayev X.S. O'zbekiston Respublikasining Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining tashkiliy-huquqiy jihatlari. Yuridik fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. – T.: – 2009.

<sup>24</sup> Мавланов И. Р. "Стратегия внешнеэкономической политики Нового Узбекистана-трансформация экономической дипломатии". Постсоветские исследования 6.3. – 2023. 252-265 с. // Мавланов И. Р. Экономическое дипломатия для развития национального потенциала. Методологическое пособие по подготовке и проведению тренингов. – Ташкент: УМЕД, ПРООН, – 2015. – 566 с.

<sup>25</sup> Hamdamiyov M.M., Tashpulatova L.M., Djurayeva R.A., Mingishev L.O'. O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi: amaliyot va siyosat. / Monografiya. – Toshkent: JIDU, – 2018. – b.184.

<sup>26</sup> Shadmankulov Sh., Shadmankulov A. The impact of economic integration processes on the promotion of export of Uzbekistan. // Восточно-европейский научный журнал. 2 (78)., – 2022. –pp.62-64.

<sup>27</sup> Yusupov A.S. Foreign economic strategy for the innovative development of the economy of Uzbekistan for the period until 2030. // Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие. 5.6., – 2022. –pp. 97-103.

<sup>28</sup> Eshev A. Increasing the competitiveness of agricultural products and its strategic approaches. // European journal of economics and management sciences. 1., – 2019. –pp.68-70.

<sup>29</sup> Abdulqosimov X.P., Saidaxmedov N.I. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari. // Экономика и финансы (Узбекистан). 1 (137)., –2021. – б.14-22.

<sup>30</sup> Pulatova L., et al. Comparative analysis of the legal aspects of the accession of the Republic of Uzbekistan to the World trade organization (WTO). // The Scientific Heritage. 86-3., – 2022. – pp.33-42.

<sup>31</sup> Abdullahodzhaev G.T., et al. Problems of copyright protection in the national legislation of Uzbekistan. // Journal of Positive School Psychology. 6.10., – 2022. – pp.2378-2384.

<sup>32</sup> Amirov L.F. O'zbekiston agrar sektorining rivojlantirish tendensiyalari. // Журнал инновации в экономике. 4.5., – 2021.

Sh.J.Fayzulloev<sup>33</sup>, A.B.Xodjayeveva<sup>34</sup>, H.R.Karimova<sup>35</sup> O‘zbekiston iqtisodiyotining hamda qishloq xo‘jaligining hozirgi holati, qishloq xo‘jaligida mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda qishloq xo‘jaligining roli, qishloq xo‘jaligiga innovatsion texnologiyalarni jalb etish istiqbollari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tashqi savdo siyosati, mazkur sohaning O‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o‘rni kabi masalalarda so‘z yuritganlar.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy izlanishlarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligidagi mavjud muammolar, ularni yechish yo‘llari hamda Jahon savdo tashkilotining iqtisodiyotga ta‘siri haqida fikr bildirilgan bo‘lsada, JSTga a‘zolikning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga ta‘siri chuqur tahlil qilinmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining “Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonining O‘zbekiston agrar sektoriga ta‘sirini tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xalqaro savdosining nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish;

Jahon savdo tashkiloti va uning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosini tartibga solish qoidalarini tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarning JSTga kirish tajribasi va agrar sohasiga ta‘sirini tahlil qilish;

agrar sektorning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi roli va rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish;

O‘zbekiston agrar sektorining tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish;

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari doirasida tashqi savdo siyosatini o‘rganish;

O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishining agrar sektoriga ta‘sirini baholash;

JSTga a‘zolik jarayonida O‘zbekiston agrar siyosatida o‘zgartirilishi lozim bo‘lgan jihatlarni aniqlash;

JSTga a‘zo bo‘lish sharoitida O‘zbekistonning agrar sektorini rivojlantirish yo‘nalishlariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekistonning agrar sektori va JSTga a‘zolikning unga ta‘siri hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayoni, tashkilotga a‘zolikning mamlakat qishloq xo‘jaligi, ichki ishlab chiqaruvchilariga,

---

<sup>33</sup> Fayzulloev Sh.J. What will uzbekistan gain by joining the WTO? // Open Access Repository. 4.2., – 2023. –pp.589-594.

<sup>34</sup> Khodjayeveva A. B. International legal cooperation in the field of food security and agriculture. // The journal of contemporary issues in business and government. 27.2., – 2021.

<sup>35</sup> Karimova Kh. R. Examining fruit and vegetables sector and ways of promotion of uzbek fruit and vegetables in foreign markets. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2.2., – 2022. –pp. 889-896.

qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tashqi savdosiga hamda mamlakatning kelgusidagi iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda qiyosiy taqqoslash tahlili, tizimli yondashish, iqtisodiy-statistik, matematik modellashtirish usullari ya'ni korrelyatsion tahlil hamda TRIST modeli qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

JSTning qishloq xo'jaligini tartibga solish bo'yicha xalqaro qoidalarini chuqur o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasining institutsional chora-tadbirlari JSTning qishloq xo'jaligi qoidalariga muvofiqligi aniqlandi va ushbu tadqiqot natijasida mamlakat qishloq xo'jaligi uchun zarur tavsiyalar ishlab chiqildi;

Filippin, Isroil, Niderlandiya, Turkiya va Braziliya kabi mamlakatlarda hosildorlikni hamda ishchilarning o'rtacha mehnat unumdorligini baholash asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini qiyosiy tahlil qilib, O'zbekistonda ushbu sektorning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha xulosalar olindi;

TRIST modeli yordamida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining uning qishloq xo'jaligiga ta'siri modellashtirilgan hamda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun o'rtacha o'rnatilgan tarif 8,9 %, o'rtacha undirilgan tarif 0,6 % bo'lgani aniqlangan. Modellashtirish natijasida JSTga a'zolik jarayonida import tariflari bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari JSTni qo'llab-quvvatlash guruhlarining tegishli mezonlariga muvofiq tasniflangan: "Yashil savat", "Rivojlanish dasturi" va "Amber quti". Ushbu taqsimot asosida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ko'paytirish yoki kamaytirish imkoniyatlari bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

JSTga a'zo bo'lishda rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakat maqomini olish bo'yicha xorijiy tajribani har tomonlama tahlil qilish asosida O'zbekistonning rivojlanayotgan mamlakat statusi bilan tashkilotga a'zo bo'lishi uning imkoniyatlarini oshirishi hamda rivojlanayotgan mamlakat statusini olish uchun dalillar aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalarini** quyidagilar tashkil etadi:

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishini uning qishloq xo'jaligiga ta'siri ko'rib chiqilib, to'plangan manbalar asosida O'zbekistonning JSTga a'zolik jarayonida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlari keng tarzda yoritib berildi;

mamlakat qishloq xo'jaligi sohasida kadrlar yetishtirib beruvchi oliy ta'lim muassasalari hamda xalqaro reytinglarning TOP 500 taligiga kirgan qishloq xo'jaligi sohasida kadrlar tayyorlovchi OTMLar o'rtasida akademik va talabalar almashinuvi hamda qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish hamda hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqotlari uchun ko'proq mablag' sarflanishi lozimligiga oid amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

oliy ta'lim muassasalarida xalqaro iqtisodiy munosabatlar, logistika, jahon iqtisodiyoti, xalqaro mintaqashunoslik bo'yicha maxsus kurs tashkil qilishda tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan nazariy-konseptual materiallar jalb qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanida e'tirof etilgan yondashuv va usullarning samarali qo'llanilgani, normativ-huquqiy hujjatlardan, O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Jahon Banki hamda Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi (FAO) statistika ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, iqtisodchi olimlar va ekspertlar xulosalari hamda ishonchli rasmiy manbalar ma‘lumotlariga tayanilgani, shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa va taklif-tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishining uning qishloq xo‘jaligiga ta‘siri tahlili asosida olingan natijalar O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati ustuvor yo‘nalishlarining nazariy-metodologik apparatini takomillashtirishda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari asosida olingan xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, tegishli oliy ta‘lim muassasalari va sohaga doir boshqa tashkilotlarning mutaxassislari uchun uslubiy materiallar tayyorlash, tashqi iqtisodiy siyosatga oid maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish, ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish hamda ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiya ishining ilmiy-nazariy va amaliy xulosalaridan “60412000-Xalqaro iqtisodiyot va menejment” ta‘lim yo‘nalishi malaka talabining umumiy kompetensiyalarini ishlab chiqishda hamda “Jahon iqtisodiyoti” fani o‘quv dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2023-yil 8-noyabrdagi 02/01-01-155-son ma‘lumotnomasi).

Dissertatsiya ishining birinchi ilmiy yangiligidan Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi Prezident Administratsiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Jahon Savdo Tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonini jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–181-sonli qarori loyihasi uchun takliflarni shakllantirishda hamda JSTning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xalqaro savdosini tartibga solish qoidalari to‘plamini o‘rganish natijalaridan Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga JSTga a‘zo bo‘lish jarayonida takliflar berishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2023-yil 13-noyabrdagi 02-287-son ma‘lumotnomasi // Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi “WTO Chairs Program in Uzbekistan” loyihasining 2023-yil 13-noyabrdagi 187/23-son ma‘lumotnomasi).

Dissertatsiya ishining ikkinchi ilmiy yangiligidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5853-son Farmonining 1-ilovasida belgilangan vazifalarni ijro etishda, xususan, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini hamda qo‘shilgan qiymatni oshirish uchun sohaga zamonaviy boshqaruv shakllarini va eng so‘nggi texnologiyalarini jalb qilish, sohadagi muammolarni bartaraf etish, fermerlarning ilm-fan bilan hamkorligini yanada rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston

Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2023-yil 13-noyabrdagi 02-287-son ma'lumotnomasi).

Tadqiqot ishining uchinchi ilmiy yangiligidan O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lish jarayonida qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun import bojlarini samarali o'rnatish yuzasidan takliflar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2023-yil 13-noyabrdagi 02-287-son ma'lumotnomasi).

Dissertatsiya ishining to'rtinchi ilmiy yangiligidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmoni 1-ilova 93-maqсадida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda, ya'ni milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini Jahon savdo tashkilotining qoida, me'yor va bitimlariga moslashtirish jarayonida foydalanilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2023-yil 13-noyabrdagi 02-287-son ma'lumotnomasi).

Dissertatsiya ishining beshinchi ilmiy yangiligidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risi"dagi PF-27-sonli farmonining 97-maqсадida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda, ya'ni JSTga a'zo mamlakatlar bilan muzokaralar o'tkazish jarayoni uchun takliflar tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2023-yil 13-noyabrdagi 02-287-son ma'lumotnomasi // Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "WTO Chairs Program in Uzbekistan" loyihasining 2023-yil 13-noyabrdagi 187/23-son ma'lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza shaklida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy nashrlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 173 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiyaning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning amaliyotga joriy

qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**“Jahon savdo tashkilotining qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosini erkinlashtirishdagi roli”** deb nomlangan **birinchi bobida** qishloq xo'jaligida xalqaro savdo nazariyalari va ularning qo'llanilishi, Jahon savdo tashkiloti va uning qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosini tartibga solish qoidalarini hamda xorijiy mamlakatlar tajribasida JSTga a'zo bo'lishning agrar sektorga ta'siri tahlil qilingan.

Qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi o'rnini haqida ko'plab iqtisodchilar o'z fikr-mulohazalarini bildirgan. Konfutsiy, Aristotel, A.Serra, V.Petti, R.Kantillon, A.Smit, T.Maltus, D.Rikardo, J.Blek, E.Xedi, P.Timmer, D.Gollin va boshqalar shular jumlasidandir.

XX asrning o'rtalariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro tashqi savdo hajmi tushib ketdi. Bunga asosiy sabab mamlakatlarning proteksionizm siyosati va ikkala jahon urushlari edi. Shu sababli G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning 27 mamlakati o'rtasida Umumiy tariflar va savdo bo'yicha kelishuv (GATT-The General Agreement on Tariffs and Trade) 1948-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi<sup>36</sup>.

1994-yilda Urugvay muzokaralar roundining (1986-1994) yakunida GATT a'zolari ishtirokida GATTning vorisi sifatida Jahon savdo tashkilotiga asos solindi, va mazkur tashkilot 1995-yil 1-yanvardan rasmiy tarzda o'z faoliyatini boshladi<sup>37</sup>. GATTdan farqli o'laroq, JST ko'p yoqlamali savdo tizimining huquqiy va institutsional organidir. Hozirda xalqaro savdo qonun-qoidalarini o'rnatish hamda savdoga oid nizolarni hal etish bilan shug'ullanmoqda. JST Kotibiyati Jeneva shahrida joylashgan bo'lib, u tarkibiy jihatdan Bosh direktor, uning to'rtta o'rinbosarlari va turli millatlarga mansub bo'lgan 624 ta xodimni o'z ichiga oladi<sup>38</sup>. Uning xalqaro xususiyatga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, JST har qanday hukumat va hukumat organlariga bo'ysunmaydigan tashkilotdir. JSTga a'zo bo'lish esa ancha uzoq va murakkab jarayondir.

Urugvay muzokaralar roundining (1986-1994) natijasi sifatida qishloq xo'jaligida ko'p tomonlama savdo qoidalarini ishlab chiqildi. Bu qoidalar asosiy 4 ta komponentdan tashkil topgan:

1. JSTning qishloq xo'jaligi bo'yicha kelishuvi (AoA-Agreement on Agriculture);
2. JST a'zolari tomonidan bozorga kirish, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyasi bo'yicha yangi tariflarni va boshqa chegaralarni o'rnatishdagi “dasturlari” yoki majburiyatlar ro'yxati;
3. Sanitariya va Fitosanitariya chora-tadbirlari shartnomasi (SPS- the Sanitary and Phytosanitary);
4. Islohotlar dasturining eng kam rivojlangan va sof oziq-ovqat import qiluvchi rivojlanayotgan mamlakatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risida Vazirlar qarori.

<sup>36</sup> The General Agreements on Tariffs and Trade. [Elektron resurs]. URL: [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/gatt47\\_01\\_e.htm](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47_01_e.htm)

<sup>37</sup> History of the multilateral trading system. [Elektron resurs]. URL: [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/history\\_e/history\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/history_e/history_e.htm)

<sup>38</sup> WTO in brief. [Elektron resurs]. URL: [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/whatis\\_e/inbrief\\_e/inbr\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/inbrief_e/inbr_e.htm)

Hozirgi kunda Jahon savdo tashkilotiga a'zolik mazkur mamlakatlarning iqtisodiyotiga, xususan, qishloq xo'jaligi sektoriga turlicha ta'sir ko'rsatgan.

Osiyo yo'lbarlaridan biri bo'lgan Janubiy Koreya 1967-yil 14-apreldan GATT hamda 1995-yil 1-yanvardan JSTga a'zo bo'lgan<sup>39</sup>. Janubiy Koreya JST tashkil topgan kundanoq mazkur tashkilot a'zosiga aylangan. Janubiy Koreyaning o'rtacha tarif darajasi 13,4 %ni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun 57 %ni va sanoat mahsulotlari uchun 6,5 %ni tashkil qiladi<sup>40</sup>. Qishloq xo'jaligi uchun ancha baland tarif o'rnatilganligini ko'rish mumkin. Umumiy o'rtacha tarif darajasidan qishloq xo'jaligi tarif darajasi deyarli 4,5 barobarga baland o'rnatilgan.

Janubiy Koreyadan farqli ravishda Markaziy Osiyo mamlakati bo'lgan Qirg'izistonning mazkur tashkilotga a'zolik jarayoni boshqacharoq tarzda kechgan. Qirg'iziston JSTga Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida eng birinchi bo'lib, 1998-yilning 20-dekabrda a'zo bo'lgan<sup>41</sup>. Shuni ham alohida ta'kidlash o'rinliki, Qirg'iziston bu tashkilotga juda qisqa vaqt ichida a'zo bo'lgan. Ya'ni a'zolikka arizani 1996-yil fevral oyida topshirgan va oradan 2 yil 10 oy vaqt o'tib bu tashkilotga a'zo bo'lgan<sup>42</sup>. Mamlakat deyarli 25 yildan beri tashkilotga a'zo hisoblanadi hamda tashkilotga rivojlangan mamlakat maqomi bilan kirgan va o'zining ichki bozorini keng tarzda tashqi raqobatchilarga ochib bergan. Uning o'rtacha tarif darajasi 7,5 %ni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun 12,7 %ni va sanoat mahsulotlari uchun 6,7 %ni tashkil qiladi<sup>43</sup>. Taqqoslash uchun Article XII a'zolarining (ya'ni JSTga 1995-yildan keyin a'zo bo'lgan mamlakatlar<sup>44</sup>) o'rtacha tarif darajasi 13,8 %ni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun 20,1 %ni va sanoat mahsulotlari uchun 12,9 %ni tashkil qiladi<sup>45</sup>.

Osiyoning iqtisodiy giganti bo'lgan Xitoy Qirg'izistondan 3 yil keyin 2001-yil 11-dekabr kuni JSTga a'zo bo'lgan<sup>46</sup>. Bu tashkilotga a'zo bo'lgunga qadar Xitoy 15 yillik muzokaralar davrini bosib o'tgan. Mamlakat tashkilotga a'zolikka kirguncha qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun o'rtacha tariflarni 22 %dan 17 %ga pasaytirishni o'z zimmasiga olgan edi. Hozirgi kunda mamlakatda o'rtacha tarif darajasi barcha mahsulotlar uchun 9,9 %ni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun esa 15,6 %ni tashkil qiladi<sup>47</sup>. Xitoyning muzokaralar davomida qiziqtirgan asosiy bandlardan biri bu uning qishloq xo'jaligidagi subsidiya siyosati bo'lgan. Xitoy bu tashkilotga a'zolik doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun ular qiymatining 8,5 % gacha subsidiya berish imkoniyatini saqlab qolgan.

---

<sup>39</sup> The Republic of Korea and WTO. [Elektron resurs]. URL:[https://www.wto.org/english/thewto\\_e/countries\\_e/korea\\_republic\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/countries_e/korea_republic_e.htm)

<sup>40</sup> O'sha yerda.

<sup>41</sup> Kyrgyz Republic and the WTO. [Elektron resurs]. URL:[https://www.wto.org/english/thewto\\_e/countries\\_e/kyrgyz\\_republic\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/countries_e/kyrgyz_republic_e.htm)

<sup>42</sup> Way cleared for Kyrgyz Republic to become 133 rd member of the WTO. [Elektron resurs]. URL:[https://www.wto.org/english/news\\_e/pres98\\_e/pr109\\_e.htm](https://www.wto.org/english/news_e/pres98_e/pr109_e.htm)

<sup>43</sup> Kyrgyz Republic and the WTO. [Elektron resurs]. URL:[https://www.wto.org/english/thewto\\_e/countries\\_e/kyrgyz\\_republic\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/countries_e/kyrgyz_republic_e.htm)

<sup>44</sup> Groups in the negotiations. [Elektron resurs]. URL:[https://www.wto.org/english/tratop\\_e/dda\\_e/negotiating\\_groups\\_e.htm#grp011](https://www.wto.org/english/tratop_e/dda_e/negotiating_groups_e.htm#grp011)

<sup>45</sup> Members and observers. [Elektron resurs]. URL: [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/whatis\\_e/tif\\_e/org6\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm)


<sup>46</sup> O'sha yerda.

<sup>47</sup> China and the WTO. [Elektron resurs]. URL: [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/countries\\_e/china\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/countries_e/china_e.htm)

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston Respublikasi agrar sektorining zamonaviy holati tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida agrar sektorning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi roli va rivojlanish tendensiyalari, mamlakat agrar sektorining tashqi iqtisodiy faoliyati hamda mamlakatning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari doirasida tashqi savdo siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.


Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotida judayam muhim rol o‘ynaydi. Sababi YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 24,3 %ni (2023)<sup>48</sup> va bu sohada jami band bo‘lgan aholining 26 %i ish bilan ta‘minlangan<sup>49</sup>. 2023-yilda butun mamlakat aholisining 49,3 %i yoki 17 million 65 ming kishi qishloqda yashashini hisobga olgan holda<sup>50</sup>, qishloq xo‘jaligi qishloq aholisi uchun asosiy daromad manbalaridan biri ekanligini aytish mumkin.

Mamlakat qishloq xo‘jaligi hajmining oxirgi 10 yillik tendensiyasi tahlili ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligi hajmida o‘sish bilan birga pasayish ham bo‘lgan (1-rasm).



**1-rasm. O‘zbekiston YaIM va qishloq xo‘jaligi hajmi, (mlrd. dollar)<sup>51</sup>**

2011-yilda mamlakat jami ishchi kuchi 12 million 4 ming nafarni tashkil qilgan. Bundan 3 million 260 ming nafari yoki 26,98 %i qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan ishchilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2022-yilga kelib mamlakat jami ishchi kuchi 13 million 970 ming nafarga yetgan hamda shundan 3 million 360 minggi qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan (2-rasm).



**2-rasm. Umumiy ishchi kuchi va qishloq xo‘jaligida band aholi soni, (mln nafar)<sup>52</sup>**

Tadqiqotda mamlakat qishloq xo‘jaligi samaradorligi boshqa xorijiy mamlakatlar qishloq xo‘jaligi samaradorligi bilan qiyosiy tahlili olib borilgan.

<sup>48</sup> Yalpi ichki mahsulot. [Elektron resurs]. URL: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>


<sup>49</sup> Employment in agriculture. [Elektron resurs]. URL: <https://data.worldbank.org/indicator/sL.AGr.empL.Zs?locations=UZ>

<sup>50</sup> Demografiya. [Elektron resurs]. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

<sup>51</sup> Manba: Muallif tomonidan World bank ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

<sup>52</sup> Manba: Muallif tomonidan World bank ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Qishloq xo‘jaligida ishchilarning o‘rtacha mehnat unumdorligi mamlakatlar kesimida tadqiq qilingan (3-rasm).



**3-rasm. Mamlakatlar qishloq xo‘jaligida ishchilarning o‘rtacha mehnat unumdorligi, (AQSh dollarida, 2022)<sup>53</sup>**

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligida bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha unumdorlik 2022-yilda 5579 dollarni tashkil qilgan. Vaholanki bu boshqa taqqoslanayotgan mamlakatlarniki bilan solishtirilganda, faqat Filippindan (2910 dollar) ko‘proq. O‘zbekiston mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha Isroildan 24,8 barobarga, Niderlandiyadan 13,5 barobarga, Turkiyadan 1,6 barobarga va Braziliyadan 2,75 barobarga orqada ekan.

**1-jadval  
2020-yilda mamlakatlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rtacha hosildorligi, (1 gektarga sentnerda)<sup>54</sup>**

	Donli mahsulotlar	Sabzavotlar	Yog‘li ekinlar	Mevalar	Ildiz yoki ildiz mevalar
<b>Braziliya</b>	52,5	243	34	190	162,9
<b>Isroil</b>	38,4	117,6	24,6	189,3	312,9
<b>Niderlandiya</b>	79,3	588,1	20	351,9	425,4
<b>Turkiya</b>	33,4	348,5	26,2	179	351,3
<b>Filippin</b>	37,7	87,7	40	124,6	101,7
<b>O‘zbekiston</b>	45,5	446,1	29	145,9	338
<b>Qirg‘iziston</b>	32,6	550	23,6	72,5	174
<b>Qozog‘iston</b>	12,8	263	10,2	172	206,5

Mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rtacha hosildorligi tahlil qilingan (1-jadval). Donli mahsulotlar hosildorligi O‘zbekistonda 2020-yilda 45,5 sentnerni tashkil qilgan. Qiyosiy taqqoslanayotgan mamlakatlardan faqat Braziliya hamda Niderlandiya don mahsulotlari o‘rtacha hosildorligi bo‘yicha mamlakatdan oldinda bo‘lgan. Mazkur taqqoslanayotgan mamlakatlar ichida donli mahsulotlar o‘rtacha hosildorligi eng baland bo‘lgan Niderlandiya mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha

<sup>53</sup> Manba: Muallif tomonidan World bank ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

<sup>54</sup> Manba: Muallif tomonidan FAO (<https://www.fao.org/home/en/>) ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

mamlakatdan 1,74 barobar oldinda hisoblanadi. Sabzavotlar o‘rtacha hosildorligi bo‘yicha ham mamlakat faqat Niderlandiyadan orqada ekan. Meva yetishtirishda esa vaziyat sal boshqacharoq, mamlakatda 2020-yilda gektaridan 145,9 sentnerdan meva yetishtirilib, taqqoslanayotgan mamlakat ichida mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha faqatgina Filippindan oldinda bo‘lgan.

**2-jadval**

**2020-yilda mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida band bir ishchiga to‘g‘ri keladigan yer hajmi, (gektarda)<sup>55</sup>**

	Qishloq xo‘jaligida band ishchi kuchi soni (ming nafar)	Qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan yer hajmi (ming ga)	Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yer miqdori (ga)
<b>Braziliya</b>	9 472	63 518	6,7
<b>Isroil</b>	49	481,4	9,8
<b>Niderlandiya</b>	223	1 042	4,67
<b>Turkiya</b>	6 471	23 145	3,57
<b>Filippin</b>	13 190	11 175	0,85
<b>O‘zbekiston</b>	3 370	4 438	1,32
<b>Qirg‘iziston</b>	439	1 364	3,1
<b>Qozog‘iston</b>	1 180	29 685	25,1

Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan yerning eng ko‘p miqdori Isroilda bo‘lib, bir ishchiga o‘rtacha 9,8 gektardan to‘g‘ri kelgan. Bu borada O‘zbekistonni ko‘rsatkichi 1,32 ga bo‘lib, faqatgina Filippinda bir ishchiga to‘g‘ri keladigan yer miqdori mamlakatnikidan past bo‘lgan (2-jadval). Bu esa mamlakatda haliyam qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish asosan qo‘l mehnatida amalga oshirilayotganini hamda texnika-texnologiya kam qo‘llanilayotganini bildiradi.

Yuqoridagi holatlardan ikki xil xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, mamlakat qishloq xo‘jaligida texnologiyadan foydalanish darajasi pastligi, ikkinchisi esa qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymatning pastligidir. Mazkur natijalar mamlakat qishloq xo‘jaligi hali raqobatbardosh emasligini anglatadi.

4 yil davomida respublikada jami ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajmi, mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti va importi hajmi dinamikasi o‘rganilgan (3-jadval).

2022-yilda 2019-yilga nisbatan qishloq xo‘jaligida umumiy ishlab chiqarish hajmi 28 % ga hamda umumiy bozor hajmi 139 % ga oshgan. Bu o‘z navbatida mamlakatda olib borilayotgan islohotlari natijasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi PQ-4634-sonli “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan g‘alla uchun bosqichma-bosqich narxni belgilash amaliyotidan voz kechilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrda PF-205-sonli “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi PF-15-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini

<sup>55</sup> Manba: Muallif tomonidan FAO (<https://www.fao.org/home/en/>) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtiruvchilar uchun yana ko'plab sharoitlar yaratilmoqda.

### 3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozor hajmi, (mln dollarda)<sup>56</sup>

	2019	2020	2021	2022	2019-2022 yy. o'sish sur'ati
Umumiy ishlab chiqarish hajmi	14700	14990	17120	18890	28 %
Umumiy eksport	1706	1456	1483	2192	28,4 %
Umumiy import	2390	2490	3630	4620	193 %
Umumiy bozor hajmi*	15384	16024	19267	21318	139 %

\* Umumiy bozor hajmi= (Umumiy ishlab chiqarish hajmi+umumiy import)-umumiy eksport.

O'zbekiston "The Global Food Security Index"da dunyodagi 113 mamlakat ichida 73-o'rinni egallagan. JSTga a'zolik jarayonida oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga soluvchi asosiy qonunlarga "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risi"dagi<sup>57</sup>, "Muhofaza choralari, antidemping va kompensatsiya bojlari to'g'risi"dagi<sup>58</sup>, "Eksport nazorati to'g'risi"dagi<sup>59</sup>, "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risi"dagi<sup>60</sup> qonunlari, soliq va bojxona kodekslari kiradi. Mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyat O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risi"dagi qonuni bilan tartibga solinadi<sup>61</sup>. Bu qonun 2000-yil 26-may kuni qabul qilingan bo'lib, o'z ichiga 31 ta moddani oladi. Bu qonunga ko'ra tashqi iqtisodiy faoliyat davlat tomonidan quyidagi yo'llar orqali tartibga solinadi:

tarif va notarif tartibga solish;

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash;

tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish;

olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;

<sup>56</sup> Manba: Muallif tomonidan World bank ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 77-II-sonli qonuni// <https://lex.uz/docs/67345>

<sup>58</sup> O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Muhofaza choralari, antidemping va kompensatsiya bojlari to'g'risida"gi 554-II-sonli qonuni // <https://lex.uz/acts/-62843>

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Eksport nazorati to'g'risida"gi 658-II-sonli qonuni // <https://lex.uz/docs/-262949>

<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi 1006-XII-sonli qonuni// <https://lex.uz/ru/docs/-99882> (Murojaat qilingan sana: 08.07.2022)

<sup>61</sup> O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 77-II-sonli qonuni// <https://lex.uz/docs/67345>

texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalarini belgilash; tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

Mazkur qonunning ko'plab jihatlari JST talablariga to'g'ri kelmaydi. Mazkur qonun to'liq JST talablari bo'yicha ko'rib chiqilishi lozim.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishining agrar sektori uchun mumkin bo‘lgan oqibatlari”** nomli **uchinchi bobida** O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishining agrar sektoriga ta’sirini baholash, JSTga a’zolik jarayonida O‘zbekiston agrar siyosatida o‘zgartirilishi lozim bo‘lgan jihatlar hamda JSTga a’zo bo‘lish sharoitida O‘zbekistonning agrar sektorini rivojlantirish yo‘nalishlari kabi masalalar tahlil qilingan.

Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonida mamlakat qishloq xo‘jaligini tartibga solishdagi bir qancha mexanizmlar ham o‘zgartirilishi talab etiladi. Ya’ni mazkur tashkilotga a’zo bo‘lgandan so‘ng bu tashkilot tomonidan umume’tirof etilgan qoidalar asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish lozim bo‘ladi.

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi<sup>62</sup> 235-sonli qarori asosida hali ham jami ekin maydonlarining asosiy qismi paxta va g‘alla yetishtirish uchun ajratilmoqda. Mana shu sababli ushbu qaror bekor qilinishi hamda majburiy davlat buyurtmasidan to‘liq voz kechilishi lozim. 2018-yilda davlat xaridi uchun mahsulot yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarining umumiy maydoni 2,5 million gektarni tashkil qilgan<sup>63</sup>. Ushbu ko‘rsatkich 2025-yilga kelib hukumat tomonidan 0 ga tushirilishi reja qilingan.

2.Paxta va bug‘doy ekinlari uchun erkin bozor shakllantirish lozim. Bu ekinlar majburlab ekish bilan birga davlat narxlari asosida xarid qilinadi. Mazkur holatlar to‘liq erkin bozor qoidalari asosida shakllantirilishi lozim.

3.Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtiruvchilar uchun erkin moliyaviy hamda xizmatlar bozorini shakllantirish lozim. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtiruvchilar ushbu imkoniyatga ega emas.

4.Qishloq xo‘jaligi sohasida ilmiy izlanishlarga ko‘proq mablag‘ sarflanishi lozim. Qishloq xo‘jaligi ilmiy-tadqiqotlari uchun davlat budjeti xarajatlari (yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotiga nisbatan foiz hisobida) 2018-yilda 0,02 % ni<sup>64</sup> tashkil qilgan. Mazkur ko‘rsatkich 2025-yilga kelibgina 0,5 %ga yetkazilishi hukumat tomonidan reja qilinmoqda. Vaholanki, muvaffaqiyatli qishloq xo‘jaligiga ega bo‘lgan o‘rta daromadli mamlakatlar qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 1 foizini qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadqiqotlar uchun sarflaydi, ko‘p daromadli mamlakatlar esa o‘rtacha 2,5 foiz sarflaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatda agrar soha mutaxassisligi bo‘yicha yetishib chiqayotgan kadrlar

<sup>62</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 235-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/2448660>

<sup>63</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5853-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/-4567334>

<sup>64</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5853-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/-4567334>

malakasi yetarli darajada emas. Shu sababli mamlakat oliy ta'lim muassasalari TOP-500 talikka kirgan xorijiy OTMLar bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yishi lozim.

Qishloq xo'jaligi rivojiga bo'layotgan to'siqlar safiga ekologik va iqlim o'zgarishlari, suv tanqisligi kabi muammolarni kiritish o'rinlidir. Mazkur soha rivoji uchun ushbu muammolarni hisobga olish juda muhim hisoblanadi.

JSTga a'zo bo'lgan 8 ta MDH mamlakati Armaniston, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston hamda Ukrainadan faqatgina Tojikiston de minimisni 10 % miqdorida qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib tashkilot a'zosiga aylangan. Qozog'iston 8,5 %lik de minimis qo'llash imkoniyatini o'zida saqlab a'zo bo'lgan bo'lsa, qolgan barcha a'zolar 5 %lik, ya'ni rivojlangan mamlakatlar darajasidagi de minimis darajasi bilan a'zo bo'lganlar.

Yuqoridagi mamlakatlar ichidan faqatgina Tojikistonni o'tish davri mazkur mamlakatda bo'lmaganini hisobga olmasa qishloq xo'jaligini yaxshi ichki qo'llab-quvvatlash shart-sharoitlari bilan a'zo bo'lgan deyish mumkin.

#### 4-jadval

#### JST qishloq xo'jaligi bo'yicha kelishuv doirasida ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash qoidalar<sup>65</sup>

№	Nomi	Tavsifi
1	“Rivojlanish qutisi”.	Qishloq xo'jaligi bo'yicha kelishuvning 6.2-moddasi rivojlanayotgan mamlakatlarga ichki yordam ko'rsatishda qo'shimcha imkoniyatlar beradi. Rivojlanish toifasiga mos keladigan qo'llab-quvvatlash turi-bu to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qishloq xo'jaligi rivojlanishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan yordam choralari hisoblanadi.
2	“Moviy quti”.	Ma'lum turdagi ekin maydonlari hajmi yoki chorva mollari bosh soniga bevosita bog'langan holda mahsulotlar hajmini qisqartirish va buning natijasida fermerlar yo'qotadigan daromadlarni qoplab berishga mo'ljallangan to'lovlar kiritilgan. “Moviy quti” qo'llab-quvvatlashi ishlab chiqarishni qisman cheklash orqali savdoga ta'sir qiladi.
3	“Yashil quti”.	Bu erkin savdo muhiti yoki ishlab chiqarishga to'siq bo'lmaydigan yoxud minimal ta'sir ko'rsatadigan qo'llab-quvvatlash tadbirlarini o'z ichiga oladi. “Yashil quti” ga kiritilgan qo'llab-quvvatlash tadbirlari JST qisqartirishni talab qilmaydigan va nomzod mamlakat bu tadbirlarga sarflanayotgan davlat mablag'larini cheklanmagan miqdorda qo'llashi mumkin bo'lgan majburiyatlarni o'z ichiga oladi.
4	“Amber quti”.	Davlatlarning qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasidagi “minimal chegara” jami ishlab chiqarish hajmining 5% (rivojlangan mamlakatlar uchun) va 10% (rivojlanayotgan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar uchun) darajasida o'rnatilgan.

O'zbekiston ham JSTga a'zolik jarayonida eng birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakat shartlarini zimmasiga olgan holda a'zo bo'lishi lozim.

<sup>65</sup> Muallif tomonidan wto.org ( [https://www.wto.org/English/tratop\\_e/agric\\_e/agboxes\\_e.htm](https://www.wto.org/English/tratop_e/agric_e/agboxes_e.htm) ) asosida ishlab chiqilgan.

JSTda “rivojlangan” va “rivojlanayotgan” mamlakatlarning ta’riflari mavjud emas. A’zo mamlakatlar “rivojlangan” yoki “rivojlanayotgan” mamlakatlar ekanligini o’zlari e’lon qiladilar. Biroq, boshqa a’zo mamlakatlar a’zolikka nomzod mamlakatning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mavjud bo’lgan qoidalardan foydalanish to’g’risidagi qaroriga e’tiroz bildirishi mumkin.

### 5-jadval

#### JSTda “rivojlangan” va “rivojlanayotgan” mamlakatlar statusi<sup>66</sup>

“Rivojlangan” mamlakat	“Rivojlanayotgan” mamlakat
“De minimis” - 5 %.	“De minimis” - 10 %.
“Rivojlanish quti”sidan foydalanish imkoniyati mavjud emas	“Rivojlanish quti”sidan foydalanish imkoniyati mavjud
Bitimlar va majburiyatlarni amalga oshirish uchun kamroq muddat beriladi	Bitimlar va majburiyatlarni amalga oshirish uchun uzoqroq muddatlar beriladi
“Rivojlangan” mamlakatlar uchun bunaqa qoidalar mavjud emas	JSTning barcha a’zo mamlakatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning savdo manfaatlarini himoya qilishini talab qiladigan qoidalar mavjud
Hech qanday yordam berilmaydi	JST shartlarini bajarish, nizolarni hal qilish va texnik standartlarni joriy etish uchun yordam beriladi

O‘zbekiston “rivojlanayotgan” mamlakat statusi bilan tashkilotga a’zo bo’lishni e’lon qilishi hamda boshqa bunga e’tiroz bildirgan a’zo mamlakatlarga ham buni isbotlab bera olishi lozim. Mazkur holatda past daromadli yoki resurslari cheklangan ichki ishlab chiqaruvchilar atamasi qonunchilikka kirgizilishi kerak. Chunki JST doirasida “Rivojlanish qutisi”dan foydalanish uchun bu muhim hisoblanadi (4- hamda 5-jadval).

### 6-jadval

#### Qishloq xo’jaligini tartibga solishning huquqiy normalarini JST qoidalari bilan uyg’unlashtirish<sup>67</sup>

1. Bozorga kirish	2. Ichki ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash
<p>A) Qishloq xo’jaligi uchun o‘rtacha tarif 11,2 %ni tashkil qilgan (O‘rtacha tariflar pasaytirilishi kerak).</p> <p>B) Maxsus himoya (the Special Safeguard, special treatment) choralaridan mamlakat foydalanadi. Bu kabi choralardan foydalanish tugatilishi lozim.</p> <p>C) Mamlakatda qonunan tarif kvotalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Bu jihat o‘zgartirilishi lozim.</p> <p>D) Mamlakatda qishloq xo’jaligi mahsulotlari ichki iste’molida xorijiy mahsulotlar ulushi 5 %dan ortiqni tashkil qiladi.</p>	<p>A) “Yashil quti” doirasida mamlakatda judayam kam mablag‘ ajratiladi. Vohalanki, bu quti doirasida mablag‘ ajratish hajmi cheklanmagan.</p> <p>B) “Moviy quti” doirasida mablag‘lar deyarli ajratilmaydi.</p> <p>C) “Rivojlanish dasturi” doirasi doirasida ajratiladigan mablag‘lar ancha salmoqli hisoblanadi. Lekin qonunchilikda “resurslari cheklangan yoki kam ta’minlangan ishlab chiqaruvchilar” atamasi mavjud emas.</p>

<sup>66</sup> Manba: Muallif tomonidan wto.org ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

<sup>67</sup> Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.

E) Mahsulotlar import qilishda ayrim yuridik yoki jismoniy shaxslarga imtiyozlar beriladi. Umuman olganda bu turdagi qoidalar JST qoidalariga to'liq moslashtirilishi shart.	D) "Amber quti" doirasida JST talablaridan ancha ko'p mablag' ajratiladi. Bu miqdor qisqartirilishi lozim. Umuman olganda ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash qoidalari to'liq qayta ko'rib chiqilishi lozim. Bugungi kunda 16 dan ziyod qaror va nizomlar mavjud.
<b>3. Eksport qoidalari</b>	<b>Boshqa qoidalar</b>
A) Eksportni rag'batlantirish agentligi eksport qiluvchi korxonalariga bir qator moliyaviy yordamlar ko'rsatiladi. Misol uchun transport xarajatlarining 50 foizgacha bo'lgan qismi agentlik tomonidan qoplab beriladi. Bundan tashqari, xalqaro standart sertifikatlar joriy etilganda, ularning to'lovlari ham agentlik tomonidan qoplanadi. Bu JST talablariga zid hisoblanadi. B) Bundan tashqari ichki ishlab chiqaruvchilarga imtiyoz berilsa, bu mahsulotlar eksport qilinsa ham bu subsidiya hisoblanadi.	A) Ba'zi bir qishloq xo'jaligi mahsulotlari (go'sh, chorva mollari, don, un kabi) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarori asosida eksport qilinadi. B) Mamlakat sof-oziq importyori emas. C) Rivojlanayotgan mamlakat statusi bilan a'zo bo'lish mamlakatga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu orqali uzoqroq tranzit muddatiga, rivojlanish qutisidan foydalanish imkoniyatiga hamda 10 %lik ichki qo'llab-quvvatlash imkoniyatini qo'lga kiritish mumkin. D) Milliy oziq-ovqat standartlari va texnik talablari JSTga tegishli oziq-ovqat standartlariga moslashtirilishi kerak. Mamlakat qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan ko'plab kimyoviy vositalar JSTga a'zo mamlakatlarda foydalanish taqiqlangan moddalardir.

JSTning asosiy talablari va bu talablar asosida mamlakat agrar sektorida o'zgartirilishi lozim jihatlar tahlil qilingan (6-jadval). Bu o'zgartirishlar JSTga a'zolik jarayonida juda muhim sanaladi.

JSTda a'zolik jarayonida mamlakat qishloq xo'jaligining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash uchun SWOT tahlil o'tkazildi (7-jadval).

### 7-jadval

#### JSTga a'zolik jarayonida O'zbekiston qishloq xo'jaligining SWOT tahlili<sup>68</sup>

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qishloq xo'jaligidagi mahsulotlar xilma-xilligi.</li> <li>2. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlanishi.</li> <li>3. Eksport salohiyati.</li> <li>4. An'anaviy dehqonchilik.</li> <li>5. Organik qishloq xo'jaligi rivojlanib bormoqda.</li> <li>6. Paxta yetishtirish salohiyati.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Modernizatsiya jarayonining sustligi.</li> <li>2. Suv tanqisligi va samarasiz sug'orish tizimi.</li> <li>3. Yerdan samarasiz foydalanish va boshqarish.</li> <li>4. Kredit va moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi.</li> <li>5. Infratuzilma va logistikadagi muammolar.</li> <li>6. Cheklangan qayta ishlash.</li> </ol>

<sup>68</sup> Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.

7. Malakali va arzon ishchi kuchi. 8. Oziq-ovqat xavfsizligi.	7. Qishloq xo'jaligida ta'lim va tadqiqot tashkilotlarining yetishmasligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
1. Texnologiyalar transferi. 2. Eksportning diversifikatsiya qilinishi. 3. Hamkorlikning kengayishi. 4. Iqtisodiy o'sish. 5. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi. 6. Qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan sanoatni rivojlantirish. 7. Tashqi savdoni erkinlashtirish. 8. Xalqaro standartlarni joriy qilish. 9. Infratuzilmaning yaxshilanishi. 10. Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish. 11. Monopoliyalarning yo'qolishi.	1. Subsidyalangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan adolatsiz raqobat. 2. Import qilinadigan xomashyolarga qaramlik. 3. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning sektorni tark etishi. 4. Tartibga solish muammolari. 5. Narxlarning o'zgaruvchanligi. 6. Notarif to'siqlar. 7. Cheklangan savdolashish kuchi. 8. Hukumatning yetarli darajada qo'llab-quvvatlamasligi. 9. Atrof-muhit bilan bog'liq muammolar.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishning qishloq xo'jaligiga ta'sirini modellashtirish uchun TRIST (Tariff Reform Impact Simulation Tool) modelidan foydalanildi. TRIST Jahon banki tomonidan yaratilgan, tashqi savdo islohotlarini baholash uchun ishlatiladigan qisman muvozanat modeli hisoblanadi. TRIST tashqi savdo islohotlarini baholash uchun eng maqbul model bo'lib, mazkur modelda qonunchilikda o'rnatilgan boj tariflari emas, undirilgan boj tariflari asosida xulosa qilinadi.

Modelda taklif qilinayotgan ssenariyga Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi import tariflari asos qilib olingan. Buning sababi mazkur ittifoq a'zolarining ko'pchiligi JSTga a'zo ekanligidir.

Modelda taklif qilingan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi import tariflariga asoslangan ssenariy ikkita asosiy shartga asoslanadi:

1) agar hozirda amalda bo'lgan boj tariflari Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi boj tariflaridan past darajada bo'lsa o'zgarishsiz qoldirildi;

2) agar amaldagi boj tariflari Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi qo'llayotgan boj tariflaridan baland bo'lsa mazkur boj tariflari ushbu ittifoq boj tariflariga teng darajaga olib kelindi.

2022-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi umumiy 4,5 milliard dollardan ko'proqni tashkil qilgan bo'lsa, modelda 1 mlrd 573 mln 354 ming dollarlik asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari tahlil qilingan. Mazkur 1 mlrd 573 mln 354 ming dollarlik mahsulotlar 572 ta turdagi asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lib, ular dunyoning 70 ta mamlakatidan import qilingan. 2022-yilda model tahlil qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun o'rtacha o'rnatilgan tarif 8,9 %ni, o'rtacha undirilgan tarif esa 0,6 %ni tashkil qilgan. Bunga asosiy sabab qishloq xo'jaligi mahsulotlari importiga berilgan imtiyozlardir.

Ekonometrik modellashtirish (TRIST) asosida asosiy o'zgarishlar<sup>69</sup>

Bojxonadan olingan ma'lumotlar asosidagi hozirgi holat (2022)	Modellashtirish asosidagi o'zgarishlar
Asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi – 1 mlrd 573 mln 354 ming \$	Asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi – 1 mlrd 542 mln 569 ming \$
O'rtacha o'rnatilgan tarif – 8,9 %	O'rtacha o'rnatilgan tarif – 2,4 %
O'rtacha undirilgan tarif – 0,6 %	O'rtacha undirilgan tarif – 2,4 %
Undirilgan boj hajmi – 8 mln 676 ming \$ O'rnatilgan boj hajmi – 140 mln 658 ming \$	Undirilgan boj hajmi – 36 mln 806 ming \$
Undirilgan QQS – 15 %	Undirilgan QQS – 12 %
Undirilgan QQS hajmi – 163 mln 630 ming \$ O'rnatilgan QQS hajmi – 236 mln \$	Undirilgan QQS hajmi – 189 mln 525 ming \$
Undirilgan aksiz – 0 %	Undirilgan aksiz – 0 %
Umumiy yig'ilgan QQS hamda boj – 172 million 306 ming \$ O'rnatilgan QQS hajmi – 236 mln \$ Umumiy davlat byudjetiga tushmagan QQS hamda boj hajmi – 204 mln 351 ming \$	Umumiy yig'ilgan QQS hamda boj – 226 million 331 ming \$

Modelda taklif qilinayotgan ssenariy natijasida import imtiyozlari to'liq bekor qilinadi. O'rtacha o'rnatilgan hamda o'rtacha undirilgan tariflar ssenariy natijasida 2,4 %ga teng bo'ladi. Ya'ni o'rtacha o'rnatilgan tariflar 3,7 martaga kamaysa, o'rtacha undirilgan tariflar 4 martaga oshadi.

O'zbekistonda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari importidan 2022-yilda o'rnatilgan tarif bo'yicha 140 million 658 ming dollarlik boj tariflari hamda 236 million dollarlik QQS yig'ilishi kerak bo'lgan. Amalda esa 8 million 676 ming dollarlik tarif va 163 million 631 ming dollarlik QQS yig'ilgan. Ya'ni 204 million 351 ming dollar miqdoridagi mablag' davlat budjetiga tushmagan. Bunga asosiy sabab tarif va QQSga berilgan imtiyozlardir.

TRIST modelini qo'llash natijasida olingan asosiy natijalar yuqorida keltirilgan (9-jadval).

Mazkur jadvaldagi natijalar QQS 12 % bo'lgan holatdagi natijalar hisoblanadi. Ya'ni taklif etilayotgan ssenariy qo'llanilishi natijasida asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi 30 million 758 ming dollarga, ya'ni 2 %ga kamayadi. Boj tariflaridan keladigan daromad esa 8 million 676 ming dollardan 36 million 806 ming dollarga o'zgaradi. Bundan tashqari taklif qilinayotgan ssenariy natijasida importdan jami soliq tushumlari 172 million 306 ming dollardan 226 million 331 ming dollarga o'zgaradi. Ya'ni importdan jami soliq tushumlari 54 million 25 ming dollarga, ya'ni 31,4 %ga oshadi. Mazkur natijalar taklif qilinayotgan ssenariyning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida mamlakatning qishloq xo'jaligi sohasidagi manfaatlarini maksimal darajada himoyalashga yordam berishini aks ettirmoqda. Mazkur ssenariyni qo'llash natijasida o'rtacha o'rnatilgan tarif stavkasi oldin 8,9 % bo'lgan bo'lsa, keyin 2,4 %ga o'zgaradi.

<sup>69</sup> Manba: TRIST modeli natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**Ekonometrik modellashtirish (TRIST) asosida tashqi savdo islohotlarini baholash<sup>70</sup>**

<b>Boj tariflari o'zgarishining asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari import hajmiga ta'siri</b>	
<b>Boj tariflari o'zgarishidan oldin import hajmi</b>	1 milliard 573 million 354 ming dollar
<b>Boj tariflari o'zgargandan keyin import hajmi</b>	1 milliard 542 million 569 ming dollar
<b>Boj tariflari o'zgarishining asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari import hajmiga ta'siri</b>	
<b>Import hajmining o'zgarishi (dollarda)</b>	Import hajmi 30 million 785 ming dollarga kamayadi
<b>Import hajmining o'zgarishi (umumiy import hajmidan, %da)</b>	Import hajmi 2 % ga kamayadi
<b>Boj tariflari o'zgarishining davlat budjeti daromadiga ta'siri</b>	
<b>Boj tariflari o'zgarishidan oldin davlat budjeti daromadi</b>	8 million 676 ming dollar
<b>Boj tariflari o'zgargandan keyin davlat budjeti daromadi</b>	36 million 806 ming dollar
<b>Boj tariflari o'zgarishining import mahsulotlaridan olinadigan QQS hamda boj tarifi hajmiga ta'siri</b>	
<b>Jami import mahsulotlaridan olinadigan QQS hamda boj tarifi hajmi tarif o'zgarishidan oldin</b>	172 million 306 ming dollar
<b>Jami import mahsulotlaridan olinadigan QQS hamda boj tarifi hajmi tarif o'zgargandan keyin</b>	226 million 331 ming dollar
<b>Asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun o'rtacha o'rnatilgan tarif stavkasi</b>	
<b>O'rtacha o'rnatilgan tarif stavkasi oldin</b>	8,9 %
<b>O'rtacha o'rnatilgan tarif stavkasi keyin</b>	2,4 %
<b>Asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun o'rtacha undirilgan tarif stavkasi</b>	
<b>O'rtacha undirilgan tarif stavkasi oldin</b>	0,6 %
<b>O'rtacha undirilgan tarif stavkasi keyin</b>	2,4 %

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari importida ayrim yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlarning bekor qilinishi natijasida import hajmi kamayadi. Bu esa o'z navbatida ichki ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Ichki ishlab chiqarish hajmi oshishi esa inflatsiya, bandlik hamda eksport kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir qiladi.

TRIST modelida JSTga a'zolik jarayonida qishloq xo'jaligi mahsulotlari import hajmi kamayishi prognoz qilingan. Bunga import qilinadigan mahsulotlarga beriladigan imtiyozning bekor qilinishi sabab bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi kamayishi esa mahsulotlarning ichki taklifini oshiradi. Mamlakatda qishloq xo'jaligi hajmining oshishi boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qanday ta'sir qilishi korrelyatsiya orqali tahlil qilingan.

Tadqiqotda o'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijasida ma'lum bo'ldiki, mamlakatning qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi oshishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport hajmi bilan ijobiy 0,69 ijobiy bog'liqlikka ega, shu jumladan,

<sup>70</sup> Manba: TRIST modeli natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

qishloq xo'jaligi mahsulotlari import hajmi (0,58) va qishloq xo'jaligida band ishchilar soni (0,59) ijobiy bog'liqlikka ega. Boshqa tomondan, kambag'allik darajasi (-0,82) ga, ishsizlik (-0,51) hamda inflyatsiya (-0,34) bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi negativ aloqaga ega. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi tanlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, O'zbekiston iqtisodiyotiga yetarlicha foyda keltiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi uning qishloq xo'jaligi sektori uchun ham imkoniyatlar, ham muammolar tug'diradi. Xalqaro bozorlarga chiqish, texnologiyalar transferi va infratuzilmaga sarmoya kiritish salohiyati iqtisodiy o'sish va diversifikatsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan muhim kuchdir. Shu bilan birga, sektor bozordagi tebranishlar, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning boshqa sohaga ko'chishi va tartibga solish muammolari kabi tahdidlarga ham duch keladi. O'zbekiston uchun ushbu muammolarni sinchiklab o'rganish va JST a'zoliq doirasida qishloq xo'jaligi sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun o'zining kuchli tomonlarini ishga solish juda muhim bo'ladi.

## XULOSA

O'zbekistonni JSTga a'zo bo'lishining uning agrar sektoriga ta'siri mavzusini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bugungi kunda ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar ekin ekiladigan maydonlardagi tuproqning joriy holatini hamda almashlab ekish amaliyotiga e'tibor qaratmayabdi. Ular hosildorlikni oshirishning asosiy omili sifatida kimyoviy o'g'itlar va zararkunandalarga qarshi kimyoviy vositalardan foydalanishni ko'rishmoqda. Mazkur holat bugungi kunda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning hosildorligini pasaytirmoqda hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro standartlarda belgilangan talablarga javob bermasligini ta'minlamoqda.

2. Mamlakat qishloq xo'jaligi sohasida kadrlar yetishtirib beruvchi oliy ta'lim muassasalari hamda xalqaro reytingning top 500 taligiga kirgan xorijiy qishloq xo'jaligi sohasida kadrlar tayyorlovchi OTMlar o'rtasida akademik va talabalar almashinuvi hamda qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Sababi bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida har tomonlama yetuk, xorijiy tillarni hamda xorij tajribasini o'rgangan kadrlarga ehtiyoj har qachongidanam yuqoridir.

3. Mamlakat qishloq xo'jaligini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining birortasida past daromadli yoki resurslari cheklangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar atamasi uchramaydi. JSTga a'zolik jarayonida "Maxsus va differensial rejim" hamda "Rivojlanish dasturi" qo'llab-quvvatlash turi doirasida ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilikka "past daromadli yoki resurslari cheklangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar" atamasi kiritilishi lozim.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi import mahsulotlar uchun TIF TN kodlardan foydalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi esa ichki ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun boshqa koddan foydalanadi. Mazkur ikkala davlat tashkilotining ma‘lumotlari umumiy bir kod bilan yuritilishi muhim sanaladi. Sababi mazkur holat, ya‘ni bu ikkala tashkilot ma‘lumotlarining bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi tadqiqotchilarga aniq takliflar ishlab chiqishda muammolar keltirib chiqarmoqda.

5. Mamlakat JSTga a‘zo bo‘lish jarayonida “rivojlanayotgan” mamlakat statusini olib a‘zo bo‘lishi lozim. “Rivojlanayotgan” mamlakat statusini olib bu tashkilotga a‘zo bo‘lish, mamlakat qishloq xo‘jaligi uchun a‘zolikdan so‘ng qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

6. Hozirgi paytda vaqtinchalik imtiyoz natijasida boj tarifi 0 stavka etib belgilangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan import imtiyozi olib tashlanishi lozim. Chunki muzokaralar jarayonida ishchi guruh bu mahsulotlarning 0 stavkadagi boj stavkasi qolishini talab qiladi. Bu esa kelajakda ushbu mahsulotlarning ichki ishlab chiqaruvchilari uchun katta muammolar yaratadi.

7. “Yashil quti” hamda “Rivojlanish dasturi” qo‘llab-quvvatlash turi doirasida ajratiladigan mablag‘lar hajmi ko‘paytirilishi lozim. Bu orqali mamlakat qishloq xo‘jaligi fanlari va tadqiqot dasturlarini rivojlantirish, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurash, qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligi uchun davlat zaxirasini yaratish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

8. Oliy ta‘lim muassasalarida JST bo‘yicha fan hamda yo‘nalishlar tatbiq etilishi hamda JST qoidalarini puxta o‘zlashtirgan yosh mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Sababi bugungi kunda mamlakatda JST qoidalarini yaxshi tushunadigan kadrlarga ehtiyoj har qachongidanam ko‘proq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.11/25.08.2022.I.24.03  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ  
МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ДИПЛОМАТИИ**

---

**УНИВЕРСИТЕТ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ДИПЛОМАТИИ**

**МОЙЛИЕВ ЭЛЁР БАХТИЁРОВИЧ**

**ВЛИЯНИЕ ЧЛЕНСТВА УЗБЕКИСТАНА В ВТО НА АГРАРНЫЙ  
СЕКТОР**

**08.00.09 – Мировая экономика**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ЭКОНОМИЧЕСКИМ  
НАУКАМ**

**город Ташкент – 2024 год**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2023.4.Phd/Iqt3563.**

Диссертация выполнена в Университете мировой экономики и дипломатии.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) на веб-странице Ученого совета ([www.uwed.uz](http://www.uwed.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Ташпулатова Лайло Маратовна**  
кандидат экономических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Юсупов Носиржон Собирович**  
доктор экономических наук, профессор

**Курбанов Алишер Бобокулович**  
кандидат экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_ 2024 г. в \_\_ часов на заседании Научного совета DSc.11/25.08.2022.I.24.03 по присуждению ученых степеней при Университете мировой экономики и дипломатии. Адрес: 100007, г. Ташкент, проспект Мустакиллик, 54. Тел.: (99871) 267-67-69; факс: (99871) 267-09-00; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета мировой экономики и дипломатии (зарегистрировано под № \_\_\_\_\_). 100007, г. Ташкент, проспект Мустакиллик, 54. Тел.: (99871) 267-67-69; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года (протокол реестра № \_\_ от «\_\_» \_\_ 2024 года).

**И.Р. Мавланов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**Г.М. Раимова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор физика-математических наук, профессор

**Н. Сирожиддинов**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время сохраняется актуальность задачи развития экономических отношений между странами, которая предполагает установление выгодных торговых связей и совместное решение многих экономических проблем. Всемирная торговая организация (ВТО), объединяющая 164 страны и на долю которой приходится 98-99 процентов мировой внешней торговли, играет важную роль в экономической интеграции стран мира. Общий экспорт стран мира в 2022 году по сравнению с 1948 годом увеличился в 250 раз<sup>1</sup>. Эти цифры являются результатом того, что ГАТТ и ВТО создали для стран благоприятный торговый режим.

Членство в ВТО является сложным процессом, который включает в себя многоэтапные переговоры и соблюдение различных правил. Опыт вступления каждой страны в ВТО может быть уникальным, однако существуют общие шаги и проблемы, через которые проходят большинство стран. В частности, такими шагами являются процесс вступления, переговоры, внутренние реформы, обучение отечественных производителей, техническая помощь, переходный период и гарантии.

В этой связи, присоединение Узбекистана к ВТО, расположенной в Центральной Азии, является одним из наиболее актуальных вопросов для экономики данной страны. В настоящее время активно проводятся научные исследования с целью изучения влияния членства в ВТО на экономические и сельскохозяйственные секторы Узбекистана, которые направлены на анализ вопросов, связанных с процессом вступления во Всемирную торговую организацию и его влиянием на национальную экономику и местных производителей. Особое внимание уделяется поиску наиболее оптимальных решений, способствующих достижению наилучших результатов для страны. Согласно данным статистических исследований, доля сельского хозяйства в ВВП Республики Узбекистан на 2023 год составила 24,3 процента<sup>2</sup>, в то время как занятость населения в данном секторе составила 26 процентов<sup>3</sup>. Из этого следует, что сельское хозяйство играет важную роль в экономике Узбекистана. В Республике Узбекистан в настоящее время реализуются комплексные меры с целью ускорения процесса присоединения к ВТО и минимизации негативных последствий, которые могут возникнуть в результате членства в данной организации для экономики страны. Как отметил Президент Ш.М.Мирзиёев «Следует подчеркнуть, что требования Всемирной торговой

---

<sup>1</sup> Trade negotiations. [Электронный ресурс]. URL: [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/whatis\\_e/inbrief\\_e/inbr\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/inbrief_e/inbr_e.htm)

<sup>2</sup> Yalpi ichki mahsulot. [Электронный ресурс]. URL: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>

<sup>3</sup> Employment in agriculture. [Электронный ресурс]. URL: <https://data.worldbank.org/indicator/SL.AGr.empL.Zs?locations=UZ>

организации полностью соответствуют сути наших реформ, и мы нацелены на скорейшее вступление в эту авторитетную организацию. В настоящее время в активной фазе находится работа по проведению переговоров со странами-членами и гармонизации национального законодательства с правилами и положениями Всемирной торговой организации»<sup>4</sup>.

Диссертационное исследование представляет собой важный элемент реализации задач, поставленных перед Республикой Узбекистан в рамках указов Президента РУз №УП-158 «О стратегии «Узбекистан-2030»» от 11.09.2023 г., №УП-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» от 23.10.2019 г., №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022 г., постановления Президента РУз №ПП-181 «О дополнительных мерах по ускорению процесса вступления Республики Узбекистан во Всемирную торговую организацию» от 02.06.2023 г. и других нормативно-правовых документов, связанных с данной сферой.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан, связанным с формированием системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства.

**Степень изученности проблемы.** Следует отметить, что в настоящее время количество фундаментальных научных исследований, посвященных изучению влияния членства Республики Узбекистан в ВТО на аграрный сектор, представлено в малом объеме.

Ж.Клапп<sup>5</sup>, М.Кардвелл и Ф.Смит<sup>6</sup>, К.Андерсон и А.Струтт<sup>7</sup>, Ж.Мванги<sup>8</sup>, Р.Шарма<sup>9</sup>, Р.Петерс, М.Машаекхи и И.Таисуки<sup>10</sup>, А.Камау<sup>11</sup> проанализировали правила международной торговли сельскохозяйственной продукцией и влияние субсидий на международную торговлю сельскохозяйственной

---

<sup>4</sup> Новый Узбекистан станет еще более благоприятной страной для инвестиций. [Электронный ресурс]. URL:<https://president.uz/ru/lists/view/6221>

<sup>5</sup> Clapp J. WTO agriculture negotiations: implications for the Global South. // *Third World Quarterly* 27.4., – 2006. – pp. 563-577.

<sup>6</sup> Cardwell M., Smith F. Renegotiation of the WTO agreement on agriculture: accommodating the new big issues. // *International and Comparative Law Quarterly*, 62(04)., – 2013. - pp. 865–898. doi:10.1017/s0020589313000341.

<sup>7</sup> Anderson K., Hoekman B., Strutt A. Agriculture and the WTO: Next Steps. // *Review of International Economics*. 9(2)., – 2001. – pp.192–214. doi:10.1111/1467-9396.00274

<sup>8</sup> Mwangi J. Introduction to the WTO agreement on agriculture. // *Gender in International Agricultural Trade Agreements: A Kenyan Synopsis*. – 2006. – P.25.

<sup>9</sup> Sharma R. Developing country experience with the WTO agreement on agriculture and negotiating and policy issues. // *IATRC Summer Symposium, Vancouver, Canada*. – 2002.

<sup>10</sup> Peters R., Mashayekhi M., Taisuke I. Legal aspects of trade in agriculture: WTO agreement on agriculture and preferential trade agreements. // *Shared harvests: Agriculture, Trade, and Employment*. – 2013. – P.73.

<sup>11</sup> Kamau A. The Role of agricultural subsidies in the World trade organization (WTO) negotiations. // *University Of Nairobi*. – 2011.

продукцией в рамках Всемирной торговой организации. Такие ученые, как М.Спур<sup>12</sup>, П.Блох<sup>13</sup>, Л.Ломбардоцци<sup>14</sup>, Р.Ялчин и П.Моллин<sup>15</sup>, З.Лерман<sup>16</sup>, М.Мюллер<sup>17</sup>, Р.Помфрет<sup>18</sup> проанализировали современное состояние сельского хозяйства Узбекистана, существующие проблемы и пути их решения, возможности и проблемы, возникающие в данной сфере в процессе присоединения к международной экономической интеграции. Исследование, проведенное М.Томз, Л.Джудит и Р.Дуглас<sup>19</sup> посвящено вопросу о влиянии либерализации внешней торговли на сельское хозяйство Узбекистана, а именно, на его отечественных производителей, внешнюю торговлю и продовольственную безопасность.

До настоящего времени ученые Н.Сиражиддинов<sup>20</sup>, М.Вохидова<sup>21</sup>, Ж.Норматов<sup>22</sup>, А.Юсупов, Ф.Назарова, Х.Исламходжаев<sup>23</sup> представили результаты своих исследований, посвященных общим положениям ВТО и влиянию членства Республики Узбекистан во Всемирной торговой организации на экономику и внешнюю торговлю страны, а также на организационно-правовые аспекты данной международной организации. И.Мавланов<sup>24</sup> провел исследование о роли экономической дипломатии в процессе интеграции Узбекистана в мировую экономику. Тем не менее, в исследованиях упомянутых авторов не было уделено достаточно внимания анализу воздействия членства Республики Узбекистан в ВТО на сельское

---

